

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA'SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To'xtasinov Mira'zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO'SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o'g'li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI Hujjatlashtirish VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og'abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yuldashev Rustam Daniyrovich

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT

RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 87-93

Adilov Zafar Yunusovich

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L 94-98

Berdikulova Surayyo Aslamovna

IJTIMOIIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI 99-104

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich

ZAMONAVIIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI 105-113

Yarbaev Xasan Xazratqulovich

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:

MILLIIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL 114-118

Maxsudjonov Kamronjon

MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIIY MADANIYATIGA

TA'SIRINING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI 119-123

Qo'chqarov Oybek G'ulomovich

INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:

IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDASHUV 124-128

Otaqulov Elyor Madiyrovich

EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI 129-136

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR 137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Niyazov Ravshan Turakulovich

SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR

XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI 142-148

Yunusova Xilola Ravshan qizi

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI

"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA 149-154

Absalamova Gulmira Sharifovna

LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIIY TERMINLARNING

NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA 155-158

Dadajanova Aziza Karimullayevna

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:

A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE 159-170

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI

RAMZIIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)

ERTAGI MISOLIDA 171-175

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafruz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahriddin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i> INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT"	337-341

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

ENHANCING INVESTMENT APPEAL THROUGH THE DEVELOPMENT OF THE CORPORATE GOVERNANCE SYSTEM IN JOINT-STOCK COMPANIES

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

Chief Specialist at Mubarek Gas Processing Plant of "Uzbekneftgaz" JSC,
Independent Researcher (PhD) at the Higher School of Business and Entrepreneurship
E-mail: navruzov6606@gmail.com

Abstract. In global practice, the development of a concept for enterprise management plays an important role in the operation, strategy, and efficient performance of an enterprise. Therefore, based on the Law of the Republic of Uzbekistan No. 814 dated January 18, 2023, 'On Amendments and Additions to Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan in Connection with the Further Improvement of the Corporate Governance System', research has been conducted on ensuring investment attractiveness through the improvement of the management system.

Keywords: corporate governance, management models, agency problem, shareholder, supervisory board, corporate control, stakeholders.

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

"O'zbekneftgaz" AJ Muborak gazni qayta ishlash zavodi bosh mutaxassisi,
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Jahon tajribasida korxonani boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish korxona ish faoliyati, strategiyasi, unumli ish faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Shu bois O'zbekiston Respublikasining «Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2023-yil 18-yanvardagi 814-sonli qonuniga asosan boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni ta'minlash haqida izlanishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, boshqaruv modellari, agentlik muammosi, aksiyador, kuzatuv kengashi, korporativ nazorat, manfaatdor tomonlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N10>

KIRISH

Bugungi kunda jahonda kuzatuv kengashi amaliyotida yetuk va zamonaviy tajriba va shakllangan malakalarni o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ishlab chiqarish korxonalari boshqaruv faoliyatida zamonaviy standartlarni ishlab chiqish boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. So'nggi 5 yil mobaynida O'zbekistonda yangi ochilgan korxonalar soni ortganini ko'rish mumkin. Korxonalarni samarali boshqarish va uzluksiz ishlashini ta'minlashda kuzatuv kengashi standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish orqali boshqaruv samaradorligiga

birmuncha erishish mumkin. Bu standartlar bevosita korxona faoliyatidan kelib chiqib ishlab chiqiladi, ya'ni korxonalarning faoliyatidagi boshqaruv uslubi, strategik xarakterli samaradorlik ko'rsatkichlari, xodimlar malakasi va boshqaruv standartlari ishlab chiqilib, joriy qilinadi.

Korxonani boshqarishda zamonaviy usullardan foydalanish nafaqat zamon talabi, balki kelajakning ham muhim talabidir [1]. Bu borada aksiyadorlik jamiyati uchun yangi boshqaruv tizimi sifatida shakllanayotgan kuzatuv kengashi standartlarini tatbiq etish va shu orqali korxonalar faoliyatida innovatsion jarayonlar joriy etish hozirgi shiddatkor zamonning dolzarb talabidir.

Aksiyadorlik jamiyatlariga ishlab chiqarish jarayonini kuzatuv kengashi standartlari asosida takomillashtirish hali to'liq o'rganilmagan. Bu muammoni yechishda xorijiy mamlakatlar korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish, mezonlarini o'rganish, mexanizmlarini tatbiq etish, aksiyadorlar mablag'larini va korporativ boshqarishni tashkil etish, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi kuzatuv kengashi faoliyatining samaradorligini oshirish, kuzatuv kengashi faoliyatini takomillashtirish afzalliklari va kamchiliklari, zamonaviy iqtisodiy tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo'nalishlarini aniqlashdir. Mavzuni ilmiy o'rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, kuzatuv kengashining tub ildizi AQSHga borib tarqaladi, bu yerda yirik korporatsiyalar paydo bo'lishi bilan boshqarish va korporatsiyalar egalik qilish huquqi bir shaxs qo'lida bo'lmay, ko'p sonli aksiyadorlar o'rtasida amalga oshirilgan. Boshqaruv menejerlar tomonidan yuritilgan. Korxonani aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirishdan maqsad esa mulkka bo'lgan munosabatni o'zgartirib, ishlab chiqarish samaradorligiga erishish. Ya'ni iqtisodiy jihatdan qoloq, aylanma mablag'lari yetarli bo'lmagan, yangi texnika va texnologiyalar sotib olish imkoniyati pasaygan korxonalarda aksiya chiqarib, ularni, asosan, tashqariga sotish bilan moliyaviy resurslar jalb etilgan[2].

Tegishli tarzdagi kuzatuv kengashi butun biznes-jarayonlar majmuini optimallashtiradi va natijada kompaniya foydasini oshirishga xizmat qiladi. Ko'plab kichik va yirik kompaniyalar uchun kuzatuv kengashi standartlari zarur ehtiyoj hisoblanmaydi. Ularning kuzatuv kengashi sohasidagi birlamchi vazifasi amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini yaxshilash hisoblanadi. Kuzatuv kengashining zamonaviy standartlari amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib, muvofiq darajada ishlab chiqilishi avvalo, ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalarini jalb qilish, jahon andozalari talabiga mos keladigan, sifatli mahsulotlar va xizmatlar yaratish korxonalar faoliyatini moliyalashtirish darajasi o'sishini ta'minlaydi[3].

Ta'kidlash joizki, korporativ boshqaruvning turli ishtirokchilari manfaatlarini kuzatuv kengashi standartlarining tatbiq etilishi natijasida keskin bozor iqtisodiyoti qonun qoidalarini bir — biriga bog'lay oladigan va tez o'zgaruvchan raqobat muhitida korxonalarni rivojlantirishning muayyan strategiyasini shakllantirishga qodir, yangicha bilim va salohiyatli liderlarni jalb qilmasdan turib biznesini kuzatuv kengashi vazifalarini bajarib bo'lmaydi. Aynan yuqorida tilga olingan sifatli kadrlar jamlanmasi kuzatuv kengashi standartlarini jahon tajribasi asosida yurtimizda keng joriy etishi mumkin.

So'ngi yillarda mamlakatimizda, eng avvalo, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida jahon tajribasida keng qo'llanilyotgan kuzatuv kengashi tizimi asosida ishlar yuritilmoqda.

Kuzatuv kengashiga bo'lgan talab korporativ biznesning rivojlanishiga, ya'ni korporativ iqtisodiy tuzilmalarning faoliyatiga bog'liq.

Kuzatuv tuzilmalar faoliyati korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatadi. Bir nechta manfaatdor ega bo'lish manfaatlar to'qnashuviga olib keladi. Korporativ aloqalardagi ishtirokchilar manfaatlari muvozanatini saqlash vazifasi kuzatuv kengashiga berilgan.

Bugungi kunda kuzatuv kengashining mohiyatini aniqlash yagona yondashuv yo'q. Shunga qaramasdan, uning ahamiyati va rivojlanish zaruriyati kuzatuv munosabatlarining barcha ishtirokchilari tomonidan e'tirof etiladi.

Umuman olganda kuzatuv kengashi ustav kapitali egalari, boshqaruv kengashi va menejerlar o'rtasidagi alohida munosabatlar shaklidir.

Xalqaro amaliyotda kuzatuv kengashi standartlari va prinsiplarini ishlab chiqish XX asrning so'nggi o'n yilliklarida faol rivojlandi. Keyinchalik, investorlar faoliyatiga qulay shart-sharoitlar yaratishga qodir bo'lgan kuzatuv kengashi prinsiplarini tizimlashtirish va rivojlantirishga birinchi urinishlar amalga oshirildi.

2005-yil boshida dunyoning turli mamlakatlarida xalqaro investorlar uyushmalari, tashkilotlari va hukumatlari ushbu sohada 100 dan ortiq hujjatlarni ishlab chiqdilar. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan kuzatuv kengashining asosiy tamoyillari bugungi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan[4].

Korporativ boshqaruv tuzilmasi korporatsiya strategik boshqaruvini ta'minlaydi va boshqaruv faoliyati va uning hisobdorligini, shu bilan birga kuzatuv kengashi samarali boshqarishni kafolatlay oladi.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv tizimi kuzatuv kengashi tamoyillarining amalga oshirishini ta'minlashi zarur.

Respublika aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi usullarini joriy etishning eng muhim xususiyatlariga quyidagilarni kiritish lozim:

- kuzatuv kengash a'zolari aksiyadorlik jamiyati faoliyati va u tegishli bo'lgan tarmoqlardagi muammolar bo'yicha xamda moliya, huquq va tartibga solish sohalarida mutaxassis bo'lmasliklari;

- kuzatuv kengashi majlislarida nafaqat o'tgan davrdagi ish natijalari, balki yangi qarorlar, strategiyalar va siyosiy qarashlar muhokama etilmasliklari;

- kuzatuv kengashi a'zolarining aksiyadorlik jamiyati mahsuloti, mijozlar fikri, bozor sharoiti, muhim strategik va tashkiliy masalalar haqidagi axborotlarni olish imkoniyatini pastligi;

- kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga ko'proq e'tiborlarini qaratish lozim bo'ladi. Aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari yilida 4-5 marotaba majlis o'tkazadi xolos. Bu asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun yetarlicha emas.

Korxonalarda kuzatuv kengashi usullari qaror topishining ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari, bir tomondan: O'zbekiston Respublikasida o'tish davrining asosiy yukini "o'ziga

olgan”ligi alohida roli bilan belgilanadi, bu milliy iqtisodiyotni qayta qurishning kardinal tuzilmasiga xamda ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishda an’anaviy yondashuvlarning o’zgarishiga bog’liqdir.

Boshqa tomondan, kuzatuv kengashi usullari joriy etishning past sur’atlari va bunga bog’liq kamchiliklarni aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqaradigan me’yoriy-huquq bazaning mukammal emasligi, O’zbekiston Respublikasida aksionerlashtirish jarayonining o’ziga xos xususiyatlari, shuningdek korxona boshqaruv oliy organlari va aksiyadorlarning amaliyotida kuzatuv kengash tamoyillariga rioya qilishidagi sustkashligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari aksiyadorlik jamiyatining rahbariyati va menejerlari tomonidan biznesni kuzatuv kengashi bo’yicha ilg’or xorijiy tajribani yetarli darajada faoliyatini boshqarish organlari tomonidan kompleks yondashuvning yo’qligi kooperatsiya jarayonlariga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Mazkur nazorat va boshqaruv organlari aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish jarayonlarini realizatsiya qilishning o’ziga xos tomonlarini yetarlicha hisobga olmaydi.

Aksiyadorlik jamiyati korxonalariga boshqarish mexanizmlarining funksional samaradorligini oshirish muammolari O’zbekistonning barcha darajadagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari faoliyatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi O’zbekistonning aksiyadorlik jamiyati tizimlarining va boshqaruv tuzilmalarining tarmoqlardagi virtual hamkorligidan samaradorligini oshirish uchun imkoniyatlarini nazariy o’rganishning amaliy ehtiyojlari bilan belgilanadi. Tadqiqot dolzarbligi jarayonlar uchun boshqaruv va kuzatuv kengashi mexanizmlarini samaradorligini uning iqtisodiy rivojlantirish yakunlari bilan bozor o’zgarishlarni yanada nazariy asos yo’nalishlari va O’zbekiston aksiyadorlik jamiyati sektori mexanizmlarini zarurligini oshiradi[5].

Bu muammoni hal qilish asosiy amaldagi samaradorlikning muammolarini chuqur o’rganmasdan va O’zbekistonda kompleksi korxonalarini rivojlantirishdan va kuzatuv kengashi tizimlarining tarmoqdagi virtual o’zaro munosabatlarining virtual asoslarini bozorda noaniqliklar va dinamik ravishda o’zgarib borayotgan ichki va tashki raqobat muhitida virtual hamkorlik usullarini ishlab chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas.

Ushbu o’zgarishlarni amalga oshirishdan maqsad kuzatuv kengashing tashqaridan turib kuzatuvchi hakam emas, balki qarorlarni qabul qiluvchi komandaning bir bo’lagiga aylantirishdan iboratdir. Aksiyadorlar kuzatuv kengashi mustaqil, jamiyatdan ajralgan xolda uni qutqarishni o’ylaydigan organga aylantirmasligi kerak. Aksincha aksiyadorlik kengashga aksiyadorlik jamiyatining muvaffaqiyatini o’z muvaffaqiyati deb biluvchi, jamiyat daromadining o’sishiga mos ravishda o’z daromadlarining xam o’sishini biluvchi kishilarni jalb eta olishlari lozim. Kuzatuv kengashi a’zolari aksiyadorlik jamiyati qiymatini oshirish bo’yicha qilgan mehnatlari farovonlik keltirishini sezishlari shart.

Yirik tashqi aksiyadorlar jamiyatning uzoq muddatli foydasiga talabgor sifatida undagi korporativ siyosatga baho berishda juda yaxshi tashqi kuzatuvchi rolini o’ynashlari mumkin. Kuzatuv kengashi va boshqaruvchilar ularning fikriga quloq sola bilishsa umumiy ishga nafi tegadi.

Mamlakat aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyatini mustahkamlash korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim bo’g’inlaridan hisoblanib,

investitsiyalarni jalb etishga va biznes muhitning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi[6]. Bunga erishish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim deb o'ylayman:

1. aksiyadorlik jamiyatlari Nizomlariga o'zgartirish kiritish orqali kuzatuv kengashi rolini oshirish va uning a'zolari samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizmni yaratish.

2. korporativ boshqaruv muammolariga ixtisoslashgan nodavlat institutlari va tashkilotlar salohiyatidan foydalangan holda kuzatuv kengashi va mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyatining eng yaxshi tomonlarini (ilg'or uslubiyotlarini) amaliyotga joriy etish.

3. ilg'or xorij tajribasi va Respublikadagi korporativ boshqaruvning mavjud amaliyoti asosida o'z ichiga quyidagilarni oluvchi kuzatuv kengashi faoliyatining milliy standartini ishlab chiqish:

- kuzatuv kengashining samarali faoliyati asoslari (roli, vakolatlari va majburiyatlari);
- kuzatuv kengashi a'zolarining huquqiy burchlari va mas'uliyatlari;
- kuzatuv kengashi vazifalari va ularning muvaffaqiyatli faoliyati ko'rsatkichlari;
- kuzatuv kengashi a'zolarining bilimi va kasbiy mahoratlari.

Mazkur standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish uchun, fikrimizcha, quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- ushbu standartlarni respublika aksiyadorlik kompaniyalari amaliyotiga joriy etish uchun zarur biznes muhit va mexanizmlarni yaratish;
- mamlakat aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida korporativ boshqaruvning umum e'tirof etilgan tamoyillari asosida kuzatuv kengashi a'zolarini moddiy rag'batlantirish tizimini joriy etish.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mamlakat ishbilarmon doiralari tomonidan mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati korporativ boshqaruvni yaxshilashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanmoqda. Shuningdek, ularning faoliyatiga investorlarning ham ishonchi ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz biznes muhiti korporativ boshqaruvida mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati amaliyotini samarali joriy etishni ta'minlash uchun quyidagi masalalarni hal qilish lozim:

- Respublika aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlarida mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyatini kengaytirish maqsadida ishbilarmon doiralar bilan nodavlat professional institutlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash. Buning uchun bunday institutlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim;
- xalqaro tajribalar va O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining kasbiy faoliyati Kodeksini ishlab chiqish. Ushbu kodeks, eng avvalo, mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati samaradorligini ta'minlashga, yuqori darajada kasbiy mahorat va etikani shakllantirishga qaratilishi lozim;
- mustaqil kuzatuv kengashi a'zolariga maslahat xizmatini ko'rsatish, o'qitish va sertifikat berish, keng jamoatchilik ongida mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati va uning korporativ boshqaruvdagi roli to'g'risidagi tushunchani shakllantirish.

Respublikada korporativ boshqaruv mexanizmining yanada rivojlanib borishi bilan mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati mos ravishda kasbiy bosqichga o'tib boradi[7]. Albatta, bunda nodavlat institutlar faoliyatining rivojlanishi eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va menejerlar o'rtasida tashkil etilgan munosabatlarni yaratish uchun rasmiy munosabatlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kuzatuv

kengashlarida aksiyadorlar fikri va boshqaruv usullarini kuzatib boruvchi korporativ qo'mitalarni tuzish mumkin. Bundan tashqari, muhim strategiyani amalga oshirishdan oldin menejrlarning aksiyadorlar bilan maslahatlashuvini me'yoriy jihatdan belgilab qo'yish kerak. Bu tadbirlar, ma'lumki, mamlakatimizda mavjud biznes muhit holati va uning yanada rivojlanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatining korporativ strategiyasi tizimli asosga ega bo'lib, kapital tarkibi va ichki korporativ oqimlar ketma-ketligini inobatga olishi kerak[4]. O'z faoliyatini nisbatan samarali tashkil etishni xohlovchi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv strategiyalari bozorini sinchiklab tahlil etish va prognozlash orqali menejrlar tomonidan ishlab chiqilib, kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun havola etilishi ayni muddao bo'lar edi.

Bunda, amalga oshiriluvchi moliyaviy-xo'jalik faoliyati va jamiyat korporativ boshqaruvi samaradorligi tahlili, ehtimoldagi risklarni baholash, albatta, malaka va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

XULOSA

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashlarida biznesni samarali yuritish bo'yicha bilim, malaka va tajribaga ega bo'lgan ekspertlardan tashkil topgan mustaqil maslahatchilar instituti yoki boshqacha qilib aytganda kuzatuv kengashi qo'mitalariga jalb etiluvchi ekspertlar guruhi ishini joriy etish vaqti kelgan deb o'ylaymiz. Aksiyadorlar korporativ boshqaruv tizimi va huquqi haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan, menejrlari kuchli ma'muriy salohiyat sohiblari hisoblanuvchi o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida mulkdorlarning boshqaruvni nazorat qilish imkoniyatini ta'minlovchi organ bo'lgan kuzatuv kengashlari kasbiy mahoratini yanada oshirish uchun, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida biznesni muvaffaqiyatli yuritish sirlaridan voqif bo'lgan mutaxassislarni maslahatchilar guruhlarini – kuzatuv kengashi qo'mitalariga jalb qilish respublikada korporativ boshqaruv amaliyoti sifatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Оценка эффективности совета директоров / Международная финансовая корпорация (IFC). 2013.
2. <https://law.bepress.com/cgi/viewcontent.cgi?article=1762&context=expresso>
3. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4525607
4. <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0413>
5. Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Тошкент ш: Академия нашриёти, 2007 й.
6. Элмирзаев.С. Замонавий корпоратив бошқарув. Тошкент ш: "Иқтисодий-Молия", 2019 й
7. <https://www.lex.uz/acts/6567>
8. Суюнов Д., Элмирзаев.С. Корпоратив бошқарув. Тошкент ш: 2021 й
9. Алиев М.Ғ. умумий таҳрири остида, Корпоратив корхоналар кузатув кенгашлари, тафтиш комиссияларининг аъзолари ва давлат бошқарув идоралари мутахассислари учун тарқатма материал. – Т.: корпоратив бошқарув маркази 2008й -117 б.
10. Каримов А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия хисоби ва аудит. - Т.: "Iqtisod-moliya", 2008.-152 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).